



O'ZBEKISTONDA LIBERALIZM TA'LIMOTINING TADRIJIY TAKOMILI VA
UNING MAZMUN-MOHIYATI

Shodmonqulova Muborak Maxamatqulovna

Guliston davlat universiteti tarix

kafedra dotsenti Tel +998 99 826 91 61

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15267121>

Annotatsiya: *Maqola mamlakatimizda liberalism ta'limotining bosqichma-bosqich rivojlanishi hamda uning mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan bo'lib, shu yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib brogan faylasuflar faoliyati va mamlakatimiz taraqqiyoti uchun ahamiyatini yoritadi.*

Kalit so'zlar: *Fuqarolik, parlament, islohot, bozor, xususiy mulk, demokratiya, siyosat, mafkura.*

Annotation: *The article is devoted to the gradual development of the doctrine of liberalism in our country and its essence, highlighting the activities of philosophers who conducted scientific research in this area and its significance for the development of our country.*

Keywords: *Citizenship, parliament, reform, market, private property, democracy, politics, ideology.*

Mustaqillik tufayli O'zbekistonda liberalism ta'limotining tadrijiy takomili, uning mazmun-mohiyati, shakl va modellarini o'rganishga keng imkoniyat yaratildi. Mamlakatimizda ko'plab mutaxassis olimlar tomonidan O'zbekistonda liberalismning dolzarb masalalari, uning shakllanish xususiyatlari, takomillashish jarayonlari, muammoning siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy, huquqiy jihatlari, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va roli keng tahlil etilgan. Xususan, M.Qirg'izboyevning "Fuqarolik jamiyati: genezesi, shakllanishi va rivojlanishi" monografiyasida siyosiy partiyalar faoliyati va fuqarolik jamiyati institutlarini erkinlashtirishda parlament islohotlarining o'rni va roli bilan bog'liq jihatlar atroflicha yoritilgan.

Bu borada B.Umarovning izlanishlari e'tiborga molik. Ularda liberalism ta'limotining tarixi, shakllanish bosqichlari, uning sharqona va g'arbona modellarining o'ziga xos xususiyat va jihatlari, AQSh, Yaponiya va Xitoy singari mamlakatlarda liberal g'oyalarni joriy etish tamoyillari, O'zbekistonda jamiyat hayotini liberallashtirishning ayrim umumiy jihatlari tahlil etilgan[1:68]. Ayni paytda, ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda liberalism g'oyalarining shakllanishi, uning bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat hayotining barcha sohalaridagi tub o'zgarishlar jarayoni bilan uzviy bog'liqligi maxsus ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Chunonchi, liberalism asosida shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlari ijtimoiy hayotning turli sohalarida sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirmoqda.

Yevropa xalqlari ijtimoiy-siyosiy tafakkuri mahsuli bo'lgan liberalismning asosini antik davridayoq subyektiv huquq, (birinchi navbatda, "xususiy mulk huquqi" tushunchalari hamda



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



fuqarolarning davlatni boshqarishda va qonunchilik jarayonida ishtirokini ta’minlovchi dastlabki institutlar tashkil etilgan borasidagi fikrlar uning katta tarixiy tajribaga ega ekanligi ko’rsatadi[2:44].

Liberalizmda tafakkur erkinligi masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bizning nazarimizda, tafakkur erkinligi inson huquqlarini ta’minlash, jamiyatni demokratlashtirish, barkamol avlodni tarbiyalashning muhim ma’naviy-intelektual sharti va vositasidir. Chunki, aynan shaxs, jamiyat, umuman turli darajada uyushgan jamoa erkin tafakkur orqali o‘z salohiyatini to‘la namoyon etish imkoniga ega bo‘ladi. Bu imkoniyat jamiyatda shaxsning kasb tanlash, ishbilarmonlik, mehnat faoliyati, ijod va so‘z erkinliklari orqali amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, tafakkur erkinligi shaxs va jamiyat yetukligining g‘oyat muhim ichki mezoni, harakatlantiruvchi kuchi, tashqi voqeligi amalga oshirishini ifoda etadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili liberalizmning ontologik tamoyillari mumtoz Yevropa antropotsentrizmi negizida tadrijiy rivojlanish asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Antropologik qarashlar doirasida inson universal va mukammal mavjudot sifatida talqin etiladi, uning tabiati mavhum-aksiomatik qoidalar orqali ifodalanadi (masalan, “dahriy inson” “his etuvchi inson”, “ma’naviy inson”, “iqtisodiy inson”, kabi xislatlar ustuvorligi). Zamonaviy liberalizm esa inson, birinchi navbatda, iqtisodiy mavjudot sifatida tavsiflanib, uning asosiy xususiyati ishlab chiqarish subyekti hamda mahsulot va xizmatlar iste’molchisi ekani ta’kidlanadi.

Frantsuz mutafakkiri Aleksis de Tokvil “Amerikada demokratiya”, “Eski tuzum va inqilob” asarlari tufayli ilmiy doiralarda katta obro‘-e’tibor qozongan edi. Uning fikricha, demokratiya – bu tenglar jamiyati bo‘lib, unda har bir individ bir xil ijtimoiy o‘ringa ega hamda iqtisodiyot, siyosat va boshqa sohalar bilan shug‘ullanish uchun boshlang‘ich imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Biroq, tenglik demokratiyaning asosiy tamoyili sifatida faqat erkinlik bilan o‘zaro mushtarak bo‘lgandagina o‘z mazmuniga ega bo‘ladi. Demokratik jamiyat siyosiy tuzilishiga ko‘ra ham respublika, ham monarxiya shaklida bo‘lishi mumkin. Milldan farqli o‘laroq, Tokvil individualizmni demokratiyaga xos bo‘lgan ijtimoiy illat deb hisoblaydi va undan xalos bo‘lishga chaqiradi. Tokvil nazarida, kishilarning tengligi va erkinligining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash orqaligina fuqarolik jamiyatini qurish mumkin degan g‘oyani yoqlab chiqadi [3:35].

XX asr boshlarida liberalizm qadriyatlarini faol himoya qilgan uning eng yorqin namoyondalari F.Xayek va D.Mizeslarning ta’kidlashicha, har qanday iqtisodiy rejalashtirish yakkahokimlikka olib keladi, ijtimoiy rivojlanishning asosiy dilemmasi rejalashtirish (tiraniya shakli) va raqobat (erkinlik ramzi) o‘rtasidagi ziddiyatlarda ifodalanadi. Bundan tashqari, ularning ta’kidlashicha, plyuralizm ko‘pchilik tomonidan kamchilikni nazorat qilish mexanizmlarini shakllantirishi mumkin. Bu esa liberalizmning asosiy tamoyillariga ziddir. Shuning uchun ham bunday vaziyatdan chiqishning eng maqbul yo‘li sifatida individualizm, xususiy mulkchilik va erkin bozorning rivojlanishi, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash hisoblangan[4:9].

Liberalizmning falsafiy va iqtisodiy nazariya, shuningdek, siyosiy ta’limot va g‘oyaviy-mafkuraviy qarashlar tizimi sifatida mazmun-mohiyati, avvalambor, insonning o‘zini-o‘zi va mulkini erkin va mustaqil ravishda idora etishi g‘oyasiga tayanadi[5:17]. Shu ma’noda,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



“Liberal” tushunchasi (lot. liber) “erkin”, “erkinlik” soʻzidan kelib chiqishi va uning tub mohiyatini ifoda etishi tasodifiy emas.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda barcha tizmlarni tubdan takomillashtirish jarayonida vujudga kelayotgan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni vazminlik, sobitqadamlik bilan hal qilishda liberalizm tamoyillariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Istiqlol sharofati bilan jamiyatimizning barcha sohalarida boʻlgani kabi fanning turli yoʻnalishlarida ham xolisona tadqiqot ishlari olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, ijtimoiy fan sohalarida, ayniqsa, mazkur sohaning tarkibiy qismi boʻlgan ijtimoiy falsafada ham ilgari, yaʼni sobiq shoʻro davrida taqiqlangan yoxud oʻrganilgan taqdirda ham masalaga ilmiy jihatdan yondashishdan koʻra, reaksiy, gʻayriilmiy oqim sifatida talqin etilgan liberalizm taʼlimoti istiqloq tufayli ilmiy jihatdan tadqiq etila boshlandi. Shu sababli, avvalambor, “liberalizm” gʻoyasining ijtimoiy-falsafiy va mafkuraviy xususiyatlari, liberalizmning zamonaviy konseptual asoslari atroflicha tahlil etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Умаров Б. Ғарб ва Шарқ ижтимоий тафаккурида эркинлик ғояси такомили (биринчи китоб). Т.: Академија, 2011. – 272 б.
2. Концепция либерализма (история и современность). -Тoshkent.: Академија, 2011. – 68 б.
3. Берлин И. Философия свободы. Европа. -Москва.: Новое литер. обозр., 2001. 44 с.
4. Алексис де Токвиль. Старая система и революция. М. 2004. с. 76.
5. Раҳимова Д, Абулқосимов Қ, Абдурахмонов О. Бошқарув тизими ва раҳбар. -Т.: Академија, 2004.
6. Новейший философский словарь / Сост.А.А.Грицанов. – Мн.: Изд.В.М.Скакун, 1998. – 365 с.